

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo’qon Davlat
Universiteti
rektori D.SH.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil

“Garmoniya.Musiqa asarlari tahlili”
FANNING O`QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000	-	Ta`lim
Ta`lim sohasi:	110000	-	Ta`lim
Ta`lim yo`nalishi:	60110600	-	Musiqa ta`limi

Qo`qon 2025

Fan/modul kodi G.MAT 1305		O`quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS-Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta`lim tili O`zbek		Haftadagi dars Soatlari 4	
1	Fanning nomi Garmoniya.Musiqa asarlari tahlili	Auditoriya mashg`ulotlari (Soat)		Mustaqil Ta`lim (soat)	Jami yuklama (soat)
		60		90	150
I.	Fanning mazmuni Fanni o`qitishdan maqsad-talabalarda Musiqiy ifodalilikka nisbatan ongli tafakkurni tarbiyalash va uni idrok etish qobiliyatini hosil qilish, talabalarning musiqiy dunyo qarashini, idrokini shakllantirish va rivojlantirish, musiqiy-estetik didini to`g`ri yunaltirish va boyitish, ijodiy qobiliyatlarini o`stirish; talabalarni musiqa o`qituvchisi sifatida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi-talabalarga musiqiy ifodalilikning asosiy vositalarini tushunib yetishishlarida chuqur bilimlar berish xamda musiqiy-texnik ko`nikmalarni o`rgatish; - kompozitorlik ijodining ahamiyatli masalalari va asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish xamda musiqa tizimi va unda muxim fan egallagan garmoniya haqida aniq tushuichalar berish; - musiqiy asar shaklining tuzilishidagi asosiy qonuniyatlari, muhim elementlari, Musiqiy rivojlanish printsiplari, shakldagi qismlar funktsiyasi bilan talabalarni tanishtirish va turli xil musiqiy shakllarni tahlil qilish malakalarini shakllantirish; - talabalarning musiqiy fikrlash, musiqiy eshitish, sof intonatsiyani xis eta olish qobiliyatlarini va musiqiy xotirasini shakllantirish, ularda lad, ritm, temp va uslub tuyg`usini tarbiyalash xamda o`zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo`llay olishga o`rgatishdir. II. Nazariy qism (ma`ruza mashg`ulotlari) II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: Garmoniya moduli. 1-mavzu. Garmoniyaning musiqadagi ahamiyati. To`rt ovozli tuzilma. Musiqiy asar rivojlanishida garmoniyaning shakllantiruvchi, biriktiruvchi, tartibga soluvchi xususiyati. Garmoniyaning musiqa ifodali vositalari bilan o`zaro bog`liqligi. Noakkordli tovushlar. Lad funsiyalari tizimi. Uchtovushlikning to`rt ovozli tuzilmada tuzilishi. Ovoz yo`nalishi turlari. <a href="https://djvu.online/file/w2AqJZAdBE818">https://djvu.online/file/w2AqJZAdBE818</a></p> <p>2- mavzu. Asosiy uchtovushliklarning qo`shilishi. Kuyni asosiy uchtovushliklar bilan garmoniyalash.				

Asosiy uchtovushliklarning garmonik va melodik qo'shilish turlari. Kuyni garmoniyalash tartibi. Akkord o'rin almashuvining turlari va ulardan foydalanish. Bas ovozini garmoniyalash tartibi. Tersiya sakrashlari, <https://studylib.net/doc/25226797/freefeezelltheorybookvol1>

3- mavzu. Kadensiya. Davriya. Jumla. Kadans kvartsektakkord.

Davriya, jumla, kadensiya tushunchalari. Kadensiya turlari. Kadans kvartsektakkord tuzilishi, funksional xususiyati va qo'llanilishi. Sekstakkordning to'rt ovozlikda joylashuv turlari, qo'llanilishi, uchtovushlik bilan qo'shilishi va undagi sakrashlar. Ikki sekstakkord qo'shilishi. Asosiy uchtovushliklar kvartsektakkordlari to'rt ovozlikda tuzilishi, turlari, tuzim orasida va kadensiyalarda qo'llanilishi.

4;-mavzu. Dominantseptakkord. II pog'ona uchtovushligi va sekstakkordi (SII6). VI pogona uchtovushligi (TSVI)

Dominantseptakkord to'rt ovozlikda tuzilishi, tonikaga yechilishi, tuzimda qo'llanilishi. Dominantseptakkordning aylanmalari, ularning to'rt ovozlikda joylashuvi, yechilishi, qo'llanilishi. Dominantseptakkord va aylanmalarining tonikaga yechilishidagi sakrashlar. Major va garmonik minorning yondosh uchtovushliklari, ularning funksional xususiyatlari. II pog'ona uchtovushligi va sekstakkordi to'rt ovozlikda tuzilishi, boshqa akkordlar bilan qo'shilishi. Garmonik majorda minorli subdominanta akkordlari qo'llanilishi. VI pog'ona uchtovushligi tuzim orasida – bo'lingan davra, va bo'lingan kadensiyada qo'llanilishi, <https://studylib.net/doc/25226797/freefeezelltheorybookvol1>

5- mavzu. Subdominantseptakkord (SII7) Yetakchi septakkordlar

(DVII7)Subdominantseptakkord va aylanmalarining to'rt ovozlikda tuzilishi, tonikaga yechilishi, boshqa akkordlar bilan qo'shilishi, tuzimda qo'llanilishi. Yetakchi septakkordlar turlari va ularning aylanmalari to'rt ovozlikdagi tuzilishi, tonikaga yechilishi, boshqa akkordlar bilan qo'shilishi, tuzimda qo'llanilishi <https://studylib.net/doc/25226797/freefeezelltheorybookvol1>

6-mavzu. Dominanta guruhining kam qo'llaniladigan akkordlari.

Dominantnonakkord, VII pog'ona sekstakkordi, III pog'ona uchtovushligi, sekstali dominanta kabi akkordlarning to'rt ovozlikda tuzilishi, boshqa akkordlar bilan qo'shilishi, tuzimda qo'llanilishi.

7-mavzu Frigiy davra. Diatonik sekvensiya. Qo'shdominanta

Soprano va bas ovozlardagi frigiya davrasini garmoniyalash variantlari. Garmonik sekvensiya va undagi funksiyalar nisbatlari. Uchtovushlik va septakkordlardan tuzilgan sekvensiya. Qo'shdominanta akkordlarining to'rt ovozlikdagi tuzilishi, boshqa akkordlar bilan qo'shilishi, kadensiya va tuzim orasida qo'llanilishi. Qo'shdominanta akkordlarining alteratsiyasi.

8-mavzu. Tonalliklarning o'zaro nisbat turlari. Og'ishma. Modulyatsiya. Tonalliklar nisbatlari turlari – taqqoslama, og'ishma, modulyatsiya.

Og'ishma, uning vositalari, amalga oshirilishi. Tonalliklar o'xshashligi darajalari. Birinchi darajalari o'xshash tonalliklar. Umumiy, vositachi, modulyatsiyalovchi akkordlar. Dominanta guruhi tonalliklariga modulyatsiya. Subdominanta guruhi tonalliklariga modulyatsiya.
<https://djvu.online/file/w2AqJZAdBE818>

Musiqqa asarlari tahlili moduli.

9-mavzu. Musiqa shakli va uning eng muhim umumiy asoslari.

Musiqa asarlarining tuzilishi – shakli. Asar dramaturgiyasi. Shaklning qismlarga bo'linishi. Sezura, uning belgilari. Musiqaning asosiy elementlari – kuy, garmoniya, ritm (tuzilishi). Har bir elementning o'ziga xos xususiyati. Shaklda qismlar funksiyasi: mavzu bayoni, bog'lovchi qism, o'rta qismi, repriza, muqaddima, koda. Kuyni rivojlantirish prinsiplari.
https://www.studmed.ru/mazel-la-cukkerman-va-analiz-muzykalnyh-proizvedeniy-elementy-muzyki-i-metodika-analiza-malyh-form_1b5320fb303.html

10-mavzu. Davriya va uning turlari. Bir qismli va rivojlangan bir qismli shakllar.

Oddiy tuzilishdagi davriya. Davriyaning tarkibiy qismlari. Jumla. Ibora. Motiv. Takroriy jumladan iborot davriya. Uning garmoniyasi. Davriya belgilari, ta'rifi. Davriya turlari. Bir tonallik davriya, uning garmoniyasi. Modulyatsion davriya. Ikki va uch jumalali davriya. Yaxlit davriya (jumalarga bo'linmaydigan davriya). Xarf bilan belgilanishi. Kvadrat va nokvadrat tuzilishidagi davriya.

11-mavzu. Oddiy ikki qismli shakl. Rivojlangan ikki qismli shakl.

Oddiy ikki qismli shaklning kelib chiqishi, qismlarning shakldagi funktsiyasi. Ikki davriyaning o'zaro bogliqligi. Garmoniya jixatidan yaxlitlik. Asosiy tonallikni ko'rsatilishi. Shaklning xarfiy ifodalanishi: A-B. Birinchi davriyaning tuzilishi. Ikkinchi davriyaning tuzilishi. Reprizali va reprizasiz ikki qismli shakl.

12-mavzu. Oddiy uch qismli shakl. Murakkab uch qismli shakl.

Oddiy uch qismli shaklga ta'rif, asosiy belgilari, uch davriyadan iboratligi: o'rta qismi va reprizasi mavjudligi. Garmonik noturg'unligi, struktura jihatidan nisbiy erkinligi. Mavzu jixatidan tarorlanishi. Statik va dinamik repriza. Qismlarning takrorlanishi. Uch-besh qismli shakl. Murakkab uch qismli shaklga ta'rif. Ikkinchi qismi – trio, lavha. Shakl qismlarining mustaqilligi. Uchinchi qism – repriza. Da capo belgisi. Murakkab uch qismli shaklning muqaddima va koda qismlari

13-mavzu. Variatsion shakl. Rondo shakli.

Variatsiyalar turlari. Basso ostinato, soprano ostinato turdagi variatsiyalar. Qat'iy va ekin variatsiyalar. Qo'shaloq variatsiyalar. Rondo shakli turlari – eskicha rondo, klassik va XIX asr rondo shakllari. Rondo shaklidagi refren va lavhalar.

14-mavzu. Sonata shakli.

Sonata shakli turlari. Klassik sonata shaklining tuzilishi.

Ekspozitsiyaning tarkibiy qismlari, ularning vazifalari, tuzilishi, tonalliklari nisbatlari. Rivojlov va repriza qismlari. Koda va muqaddima. Sonata shakli dramaturgiyasi.

15-mavzu. Turkumli (siklli) shakllar.

Erkin shakllar. Opera. Syuita. Partita. Popurri. Sonata sikli. Trio, kvartet. Konsert. Simfoniya. Ularning tuzilishi va qismlar o'rtasidagi aloqalar. Erkin shakllar – fantaziya, rapsodiya, ballada, poema. Musiqiy deklamasiya turlari. Opera turlari. Rechitativ, ariya, ariyetta, sahna, kavatina. Ansambllar – duet, trio va h.k. xorlar. Operadagi cholg'u musiqa. Leytmotiv. Musiqiy drama. Oratoriya, kantata https://www.studmed.ru/mazel-la-cukkerman-va-analiz-muzykalnyh-proizvedeniy-elementy-muzyki-i-metodika-analiza-malyh-form_1b5320fb303.html

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

“Garmoniya” moduli

1. To'rt ovozli tuzilma. Ovoz yo'nalishi. Akkordlarning garmonik va melodik qo'shilishi. Kuyni garmoniyalashga misollar yechish
2. Akkordning o'rin almashuvi qo'llanilishi Basni garmoniyalashga misollar yechish. Tersiya sakrashlari. Kadans kvartsektakkordi qo'llanilishi.
3. Uchtovushliklarning sektakkordlar bilan qo'shilishi. Ikki sektakkord- ning qo'shilishi. O'tkinchi va yordamchi kvartsektakkordlar.
4. Asosiy dominantsektakkord qo'llanilishi. Dominantsektakkord aylanmalarining qo'llanilishi. II pog'ona uchtovushligi va sektakkordining qo'llanilishi. II pog'ona akkordlari garmonik majorda qo'llanilishi. Bo'lingan davra va bo'lingan kadensiya
5. Subdominantsektakkord va Yetakchi sektakkordlar yechilishi;
6. Dominantnonakkord, VII pog'ona sektakkordi, III pog'ona uchtovushligi, sektali dominanta. Diatonik sekvensiyalar tuzilishi..
7. Qo'shdominanta kadensiya va tuzilma o'rtasida qo'llanilishi. Alteratsiyalangan qo'shdominanta qo'llanilishi.
8. Dominanta va subdominanta akkordalari orqali og'ishmalar bajarish va modulyatsiya qilish.

“Musiqiya asrlari tahlili» moduli

9. Davriya turlari – bir qismli va rivojlangan bir qismli shakldagi asarlarni tahlil qilish. Oddiy ikki qismli shakl – reprizasiz va raprizali shakldagi asarlarni tahlil qilish. Rivojlangan ikki qismli shakldagi asarlarni tahlil qilish.

10. Oddiy uch qismli shakl turlari – o‘rta qismi bir mavzuli yoki kontrastli bo‘ladigan asarlarni tahlil qilish.
- 11 Murakkab uch qismli shakldagi asarlarni tahlil qilish.
12. Variatsiya shakli turlari – klassik, romantik shakldagi asarlarni tahlil qilish. Rondo shakli – eskicha, klassik, romantik rondo turlaridagi asarlarni tahlil qilish.
- 13.Sonata shakldagi asarlarni tahlil qilish.
14. Tsiklli shakllar – syuita, sonata, simfoniya, popurri janrdagi asarlarni tahlil qilish.
- 15.Operalar tahlili.

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Laboratoriya mashg‘ulotlari rejada berilmagan.

V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- manbalar bilan ishlash;
- multimediali taqdimotlar yaratish;
- individual o‘quv vazifalar bajarish;
- mavzuga oid topshiriqlarni nota daftarida tuzish;
- nota daftarida berilgan kuy, bas ovozini garmoniyalashtirish;
- asarni tahlil qilish;
- asar nota matni bilan ishlash;
- musiqa elementlarini tinglab aniqlash;

Ta’lim yo‘nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etilayotgan mavzular:

“Garmoniya” moduli

1. To‘rt ovozli tuzilma
2. Asosiy uchtovushliklarning qo‘shilishi
3. Kuy va bas ovozini garmoniyalash
4. Tersiya sakrashlari.
5. Asosiy uchtovushliklarning sekstakkordlari
6. Kadans kvartsekkordi
7. O‘tkinchi va yordamchi kvartsekkordlar
8. Dominantsekkord
9. II pog‘ona uchtovushligi va uning sekstakkordi.
10. VI pog‘ona uchtovushligi. Bo‘lingan kadensiya.
11. Dominanta guruxining kam qo‘laniladigan akkordlari.

12. Subdominantseptakkord

13. Yetakchi septakkorlar

14. Qo'sh dominanta

15. Og'ishma.

16. Modulyatsiya.

“Musiqi asarlari taxlili” moduli

1. Musiqa shakli asosiy elementlari – kuy, garmoniya, ritm

2. Shaklda qismlar funksiyasi. Kuy-mavzuning bayon turlari kuyning rivojlantirish tamoyilari.

3. Davriya shakli.

4. Oddiy ikki qismli shakl

5. Oddiy uch qismli shakl

6. Murakkab uch qismli shakl.

7. Variatsion shakl

8. Rondo shakli

9. Sonata shakli.

10. Tsiklli shakllar

11. XVIII asr opera shakli.

12. Musiqiy drama shakli.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan nota daftarida musiqa elementlarini tuzish, ularni kuylash va tinglab aniqlash, bir va ikki ovozli kuylarni solfedjio qilib kuylash, kuy (soprano) va bas ovozlarini garmoniyalash va fortepianoda chalib ko'rsatish, asarlarni tahlil qilish va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VI. Kurs ishi ushbu fandan o'quv rejada ko'rsatilmagan.

VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilishi kerak:

- garmoniyaning asosiy qonun qoidalarini, akkordlarning laddagi garmonik funksiyalarini, stilistik hususiyatlarini bilishlari, musiqa asarlarini garmonik tahlil qilish usullari;
- musiqiy shaklning muhim elementlari; musiqaning asosiy rivojlantirish prinsiplari; shakl qismlarining funksiyalari; bayon etish turlari va har bir shakl turining tuzilish qonun qoidalarini;
- kuyga akkompaniment tuzish qonun-qoidalarini haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)
- akkordlar yechilishlarini, akkordlar ketma-ketligini, diatonik sekvensiyalarni, yozma ravishda va fortepianoda tuzish;
- o'tilgan akkordlarni to'rt ovozli tuzilmada har xil tonalliklarda tuzish, akkordlarni qo'shishda ovoz yo'nalishi qonun-qoidalariga amal qilish, berilgan kuy yoki basni garmoniyalash, berilgan akordlar bellgilanishlariga qarab akkordlar ketma-ketligini tuzish va fortepianoda chalish; oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmonik tahlil qilish;
- berilgan musiqiy asarda shaklning turi, bayon turi, rivojlantirish tamoyillarini

bilib, tahlil qilinayotgan asarda ularning ahamiyatini ko'rsatib, har xil tipdagi shakllarning o'ziga xos xususiyatlarini ajratish; har-bir asosiy qismni va qismlarning bir-biriga umumiy bog'lanishini tahlil qilishi; musiqiy mavzular tarkibi, ularning bir xilligi yoki qarama-qarshiligi, xarakteri va mazkur xarakterga erishish vositalaridan foydalanish

- kuyning ayrim elementlari o'zaro musobatlari, ko'pincha xalq musiqa ijodidan keng o'rin olgan lad-garmonik vositalarining qonuniyatlari, asarning ibora, jumla va boshqa qismlarga bo'linishini xis etish, turli hildagi major va minor gammalar, intervallar, akkordlar, xalq ladlarini kuylash va tinglab aniqlashni bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)
- uncha katta bo'lmagan musiqa asarlarining ladi, tonalligi aniqlab, obrazlar xarakterini tahlil qilish;
- berilgan kuy yoki bas ovozini garmoniyalash; akkordlar ketma ketliklarini (sifrovka) davriya shaklida chalib berish;
- oddiy shakldagi asarni yoki asar parchasini garmoniya jihatidan tahlil qilish; har qanday shakldagi asarni tahlil qilish;
- davriya shaklidagi o'tilgan akkordlardan tuzilgan ketma-ketliklar , mavjud bir tonalli va modulyatsiyalovchi bir ovozli hamda gomofon-garmonik va polifonik uslubdagi ko'p ovozli namunalar aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka).

VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual topshiriqlar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun vazifalar;
- ijodiy ishlar yaratish;

IX. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish

X. Asosiy adabiyotlar

1, Urmanova L., Trigulova A., Ibrahimjanova G. Musiqa nazariyasi. - Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.(elektron),

https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/07/25/NamDU-ARM-11348-Musiqa_nazariyasi.pdf

2, Ibrohimjonova G.A., Yuldoshev U.Yu. Musiqa nazariyasi. - Adabiyot uchqunlari. 2018..(elektron)

3, Ю. Холопов. Гармонический анализ. Часть первая. "Музыка", 1990г https://ale07.ru/music/notes/song/muzlit/holopov/h_analiz.htm

4, Учебник гармонии - Дубовский И., Евсеев С. Соколов В., <https://djvu.online/file/w2AqJZAdBE818>

	5 Q Raximov. Garmoniya bo'yich misollar to'plami . T 2005. XI. Qo'shimcha adabiyotlar 6, Mark Feezell. Music Theory Fundamentals - High-Yield Music theory, vol. 1 Copyright © 2011 All Rights Reserved. https://studylib.net/doc/25226797/freefeezelltheorybookvol1 7, Sami Aziz ug'li. Garmoniya T., «O'zbekiston»,.(elektron) 8. Мазель Л.А., Цуккерман В.А. Анализ музыкальных произведений https://www.studmed.ru/mazel-la-cukkerman-va-analiz-muzykalnyh-proizvedeniy-elementy-muzyki-i-metodika-analiza-malyh-form_1b5320fb303.html Axborot manbaalari 1. www.tdpu.uz 2. www.ziyonet.uz 3 4. www.edu.uz
	Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va instituti Kengashining 2025 yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
	Fan/modul uchun ma'sular: 1.Q. Fozilov – QDU Musiqa nazariyasi kafedrası katta o'qituvchisi
	Taqrizchilar: 1. D. Nosirov - QDU Musiqa nazariyasi kafedrası dotsenti.